

GEPATIT C — YUQISH YO'LLARI, BELGILARI,
TASHXISLASH USULLARI

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat
Salomatligi texnikumi o'qituvchisi
Sapayeva Go'zal Rashidovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada virusli kasalliklardan biri bo'lgan hepatit C kasalligi, uning yuqish usullari, belgilari va tashxislash usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: virus, hepatit, tashxislash, sariq.

Virusli hepatitlar – bu turli viruslar qo'zg'atadigan yuqumli kasalliklar guruhi bo'lib, asosan jigarning jarohatlanishi, organizmning umumiy zaharlanishi va ba'zi holla rda sariqlik bilan kechadi. Qadimdan xalq orasida bu xastalik “sariq kasalligi” deb ataladi. Bu kasalliklarning qo'zg'atuvchisi virus bo'lganligi bois, bugungi kunda ular “virusli hepatitlar” deb yuritilmoxda. Surunkali hepatitlar orasida C virusli hepatit alohid a o'rinn tutadi. Dunyoda hepatitning bu turi asosan parenteral, ya'ni, qon va qon mahsu lotlarini quyish, nosteril shprislar orqali inyeksiya qilish (bu holat giyohvand moddala rni tomir ichiga qabul qiluvchi kishilar orasida uchraydi), a'zolar transplantatsiyasi (organizm a'zolarini ko'chirib o'tqazish) va teri butunligining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa tibbiy hamda tibbiy bo'limgan muolajalar orqali ham yuqishi mumkin. Ayrim hollarda bu kasallikning yuqish yo'li aniqlanmay qoladi. Virusli hepatit C qon bilan yuquvchi kasalliklar guruhibi kiruvchi kasallik bo'lib, 80% hollarda parenteral yo'lbil bilan yuqadi. Jinsiy, maishiy aloqa, vertikal yuqish hollari ancha kam uchraydi. Jinsiyo'lbil bilan yuqish mumkinligi virusning nafaqat qonda, balki boshqa biologik suyu qliklarda (sperma, bachardon shillig'i) ham topilishi bilan izohlanadi. Vertikal yuqishda virus onadan homilaga homiladorlik paytida (tug'ma, intranatal) yoki tug'ilish paytida (perinatal) o'tishi mumkin. Kasallanish xavfi qon preparatlariiga (qon, plazma, eritr otsitar, trombotsitar massa) va gemodializga muxtoj bemorlarda yuqori bo'ladi.

Shuning uchun kasallikning yuqishi qon va buyrak kasalligi bor bemorlarda tez-tez uchrab turadi. Aniqlanishicha, virus qon va qon preparatlari quyliganda 10% hollarda, venaga narkotik qabul qiluvchilarda 65% hollarda va boshqa yo'llar bilan 25% holdarda yuqar ekan. Kasallik ko'proq 15-30 yoshgacha bo'lgan bemorlarda ko'proq uchraydi. O'zbekiston hududida o'tkir hepatitlar bilan kasallanganlarning 5-6 % ida aynan hepatit C uchraydi. C virusli hepatit ko'pincha klinik alomatlarsiz kechishi, ko'p holla rda jarayonning surunkali tus olishi, jiggardan tashqari organizmning boshqa ko'pgina a'zolarining zararlanishi va og'ir asoratlarga sabab bo'lishi bilan tavsiflanadi. Dastlab mazkur hepatit turi shartli ravishda “A ham emas, B ham emas” degan nom bilan yuri tilgan. Bu shartli tashxisning nomi amaliyatda 15 yilgacha qo'llanilib kelgan. Ushbu turdagi hepatitlar surunkali kechishga moyilligi va jigar sirrozi hamda jigar saratoni kabi asoratlar bilan yakunlanishi mumkinligi bois bugungi kunda jahon tibbiyotining eng muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. C virusli hepatit dunyo miqyosida keng tarqalgan kasalliklardan biridir. 1989 yilda C hepatit virusi aniqlangan bo'lib, bu virus sababchi bo'ladigan xastalikka tegishli bo'lgan ayrim muammolar hanuzgacha o'z yechimini kutmoqda. Virus ribonuklein kislotaga ega bo'lib, bugungi kunda uning b



ir nechta genotiplari aniqlangan. O‘zbekistonda asosan 1-genotip virus ko‘proq aniqla nadi. Shu bilan birga 2–va 3-genotiplar ham uchraydi. Virusning 3–va 4-genotiplari a sosan Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida ko‘proq kuzatilmoqda. C hepatit v irusi hepatotrop ya’ni, jigarni zararlaydigan virus bo‘lib, qon orqali organizmga tarqal adi hamda jigar hujayralari – hepatotsitlarga o‘rnashib olib, shu hujayralarda rivojlnana di va ularni jarohatlaydi. Bu virusni “immun tizimga chap beradigan” virus ham deyil adi. Virusdagi bu xususiyatning mexanizmi hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan. Hozirgi vaqtida olimlarimiz virusning immun tizim ta’siridan qochish sababini virusning juda o‘zgaruvchanligi bilan bog‘lashmoqda. Organizmda immun tizim hujayralari virusni t ezda taniy olmaydi va natijada kasallik cho‘ziluvchan surunkali tus oladi. Virusning o rganizmdagi lipoproteinlar deb nomlanuvchi yog‘ va oqsil tabiatli moddalar bilan biri kib organizm immunitetidan yashirinishi mumkin degan farazlar ham ilmiy asosda o‘r ganilmoqda. Shu sababli ham bu kasallik makkor hisoblanadi.

Jahonda bu xastalik B virusli hepatitga qaraganda ko‘proq uchraydi. Kasalliknin g klinik belgilariga kelsak, xastalikning o‘tkir kechishi deyarli aniqlanmay qoladi: bun ga sabab bir tomondan kasallikning asosan yengil kechishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning ko‘pincha sariqliksiz o‘tishidir. Surunkali C virusli hepatitning asosi y xususiyatlaridan biri uning uzoq yillar davomida klinik belgilarsiz kechishidir. Shun ing uchun ko‘p hollarda C hepatit virusi profilaktik ko‘riklardan o‘tishda yoki xastalik ning asoratlari ya’ni, jigar sirrozi yoki jigar saratoni bosqichida aniqlanadi.

Bu hepatitlar ko‘pincha katta yoshdagi kishilarda uchraydi. Bolalar kasallikkabi o rasida surunkali C virusli hepatitlar juda kam hollarda aniqlanadi. Kasallik yuqqanida n 10-15 yil va undan ko‘p vaqt o‘tganda kasallikning ayrim klinik ko‘rinishlarini aniq lash mumkin. Bu vaqtda bemorlar ishtahaning pasayishi, yog‘liroq ovqatlarning qiyin hazm bo‘lishi, ko‘ngil aynishi, kam hollarda qusish, og‘izda achchiq ta’m sezishdan shikoyat qiladilar. Bu bemorlarda qabziyat bilan ich ketishining almashib turishi, qorin damlashi, o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq yoki og‘irlik, tana vaznining kamay ishi, uyquning buzilishi va milkarning qonab turishi kuzatilishi mumkin. Jigar kattalashadi, paypaslab ko‘rilganda og‘riq sezilishi mumkin. Ayrim bemorlarda t aloq kattalashishi aniqlanadi. Kasallik xolestatik komponentlar (o‘t dimlanishi) bilan kechganda ko‘z va terining sarg‘ayishi kuzatiladi. Xastalikning bu turida intoksikatsiya (organizmnинг zaharlanish) belgilari kam namoyon bo‘ladi. Bemorning umumiyligi voli ko‘pincha qoniqarli bo‘lib, ko‘proq terining qichishishi va tana haroratining subfebril (37,0-37,5°) darajada ko‘tarilishi kuzatiladi. Qonda umumiyligi bilirubin miqdori ko‘paysada, jigar fermentlari me’yoriy ko‘rsatkichlarda aniqlanishi mumkin. Kasallikning xolestatik turi ko‘pincha katta yoshdagи kishilarda uchraydi. Surunkali C virusli hepatitda jigar zararlanishidan tashqari boshqa a’zolarning kasallikkabi ham ko‘p uchraydi: vaskulit (qon tomirlarining yallig‘lanishi), polimiozit (tananing ko‘pgina mushaklarining yallig‘lanishi va og‘riq bilan kechishi), piyelonefrit (buyraklarning yallig‘lanishi), ko‘rishning xiralashishi kabi o‘zgarishlar aniqlanadi.

Bemorlarda C va B hepatit viruslari birga aniqlanishi ham mumkin. Bunday geopolitlarni mikst-hepatitlar deyiladi. Yuqumli kasalliklarning asosiy qonuniyatlaridan biri bu har bir yuqumli kasallikning o‘z qo‘zg‘atuvchisi borligidir.

Gepatit C kasalligini tashxislash

Surunkali C virusli gepatitga tashxis qo‘yishda epidemiologik ma’lumotlar va ka sallikning klinik belgilari (umumiy holsizlik, o‘ng qovurg‘a ostida og‘irlik yoki og‘riq), obyektiv tekshiruv ma’lumotlari (jigar va kam hollarda taloqning kattalashish i) kasallikni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Kasallikka yakuniy tashxis qo‘yishda lab oratoriya tekshiruv usullari asosiy o‘rin tutadi. Qonning umumiy klinik va biokimyov iy tahlillari natijalari o‘rganiladi. Qonda jigar fermentlari hisoblangan alaninaminotra nsferaza (AlAT) ko‘rsatkichlarining oshishi jigardagi jarayonning faolligini ko‘rsatad i. Olimlarimiz tomonidan keyingi yillarda olingan ma’lumotlarga ko‘ra mazkur ko‘rsatkichning doimiy ko‘tarilib turishi jigar to‘qimalarining jarohatlan ayotganligini bildiradi. Shuning uchun qondagi bu biokimyoviy ko‘rsatkichni muntaz am ravishda tekshirib turish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy serologik va virusolog ik laboratoriya tekshiruvlaridan immunoferment tahlil orqali C gepatit virusiga qarshi ishlab chiqilgan antitelolar va polimeraza zanjir reaksiyasi usulida virusning turi, qon dagi miqdori va genotiplari aniqlanadi. Qonda virus miqdori (virus yuklamasi)ning aniqlanishi ham virusning jigar hujayralariga faol ta’sir ko‘rsata yotganligini bildiradi. Qondagi virus miqdori aniqlangandan keyin virusning qaysi ge notipga mansubligi tekshiriladi. Tashxis qo‘yishda ultratovush tekshiruvi (UTT) va ji garni fibroskanda tekshirish noinvaziv (teri va shilliq qavatlarni jarohatlamaydigan) tekshiruv usullaridan bo‘lib hisoblanadi. Bu tekshiruvlar orqali jigarning kattaligi, yuzasining tekis va silliqligi, uning to‘qimalarining zichlashuvi, jigar da fibroz to‘qima rivojlanishining darajasi va boshqa ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Otabekov N.S., Mamatqulov I.X. // O‘zbekiston tibbiyotjumali. 2000 , 1- 2:16-17.
2. Ahmedova M .D., Boboxo‘jayev S.N. // O‘zbekiston tibbiyotjumali 2005 № 1:67-68.
3. Ахмедова М .Д., Наренев И.А. //Инфекция, иммунитет и фармакология. Ташкент, 2004.-№2.71 -75.
4. Ахмедова М .Д ., Муминов У.А. //Инфекция, иммунитет и фармакология. Ташкент, 2004.-№ 2.31-33.
5. Ahmedova M.J. va boshqalar. Yuqumii kasalliklarva bemorlar parvarishi. Toshkent, 2002.
6. Boboxojaev S.N., Do’stjonov B.O. Qorin tifi—paratif kasalliklari va bu xastaliklarda parhez masalalari. Toshkent, 1997